

Toshboyeva Laylo Jurayevna,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch
doktoranti

BO'LAJAK TURIZM MUTAXASSISLARINING SOHAVIY LUG'AT BOYLIGINI ELEKTRON AXBOROT TIZIMLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

UO'K: 378

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_8_1](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_8_1)

TOSHBOYEVA L.J. BO'LAJAK TURIZM MUTAXASSISLARINING SOHAVIY LUG'AT BOYLIGINI ELEKTRON AXBOROT TIZIMLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Maqola nafaqat mavjud ilmiy manbalarni umumlashtiradi, balki zamonaviy platformalarni (Quizlet, Kahoot, WorksheetZone) tahlil qilish orqali ularning o'qitish jarayonidagi o'rnini belgilardi va aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqadi. Shu orqali maqolada nazariy va amaliy bilimlar uyg'unlashadi.

Shuningdek, maqola orqali so'z boyligini shakllantirishda an'anaviy usullardan tashqarida interaktiv, mustaqil o'rganishga asoslangan ta'lim modellarini joriy etish zaruriyati ilmiy jihatdan asoslanadi. Bu esa turizm sohasida kasbiy muloqotda aniq va to'g'ri atamalardan foydalanish, zamonaviy mehmonxona, gidlik yoki turoperatorlik faoliyatida xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, maqola o'z mohiyatiga ko'ra:

- sohaviy lug'at o'rgatishda elektron texnologiyalardan oqilona foydalanishni ilmiy jihatdan yoritadi;

- xorijiy tajriba bilan milliy ta'lim tizimini solishtirib tahlil qiladi;

- ilmiy-nazariy tavsiyalarni aniq va amaliy shaklda taqdim etadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: flesh-kartalar va takrorlash metodlari, gamifikatsiya elementlari va motivatsiya, Blended learning, aralash metodlar, kontekstual va yozma ko'nikmalar, milliy kontekstga moslashtirish.

ТОШБОЕВА Л.Ж. РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СЛОВАРНОГО ЗАПАСА БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В СФЕРЕ ТУРИЗМА С ПОМОЩЬЮ ЭЛЕКТРОННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ

В статье не только обобщены существующие научные источники, но и через анализ современных платформ (Quizlet, Kahoot, WorksheetZone) определено их место в учебном процессе и разработаны конкретные методические рекомендации. Таким образом, в статье гармонично сочетаются теоретические и практические знания.

Кроме того, в статье научно обоснована необходимость внедрения интерактивных и основанных на самостоятельном обучении образовательных моделей, выходящих за рамки традиционных методов формирования словарного запаса. Это, в свою очередь, имеет важное значение для точного и правильного использования профессиональной терминологии в сфере туризма, а также для подготовки конкурентоспособных кадров для деятельности в международном масштабе — в современных гостиницах, работе гидов и тuroператоров. Таким образом, по своей сути статья:

- научно обосновывает целесообразное использование электронных технологий при обучении профессиональной лексики;
- сопоставляет зарубежный опыт с национальной системой образования;
- представляет научно-теоретические рекомендации в четкой и практической форме.

Ключевые слова и понятия: флеш-карты и методы повторения, элементы геймификации и мотивации, смешанное обучение, комбинированные методы, контекстуальные и письменные навыки, адаптация к национальному контексту.

TOSHBOYEVA L.J. DEVELOPING THE PROFESSIONAL VOCABULARY OF FUTURE TOURISM SPECIALISTS THROUGH ELECTRONIC INFORMATION SYSTEMS

The article not only summarizes existing scientific sources but also, through the analysis of modern platforms (Quizlet, Kahoot, WorksheetZone), defines their role in the teaching process and develops specific methodological recommendations. In this way, the article integrates theoretical and practical knowledge.

Furthermore, the article scientifically substantiates the necessity of introducing interactive and self-directed learning models that go beyond traditional methods of vocabulary development. This is crucial for the accurate and appropriate use of professional terminology in the tourism sector and for training internationally competitive specialists for work in modern hotels, guiding, or tour operating activities. Thus, in its essence, the article:

- scientifically highlights the rational use of electronic technologies for teaching sector-specific vocabulary;
- compares foreign experience with the national education system;
- presents scientific and theoretical recommendations in a clear and practical form.

Key words and concepts: flashcards and repetition methods, gamification elements and motivation, blended learning, combined methods, contextual and writing skills, adaptation to the national context.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida turizm sohasi jahonda eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri sifatida davlatlar iqtisodiyotida katta ahamiyat kasb etmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yillikda xalqaro sayyohlar oqimi yiliga o'rtacha 5–6 foizga oshib bormoqda. Turizm ko'plab davlatlar uchun barqaror iqtisodiy rivojlanish, ish o'rinlari yaratish va milliy madaniyatni targ'ib etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham turizm sohasi davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mamlakatimizda "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish, xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish va xizmatlar sifatini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish bo'yicha qator davlat dasturlari qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoniga muvofiq 2030-yilga qadar O'zbekistonga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar sonini 15 millionga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan. Shu bois, turizm sohasida raqobat-

bardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash — zamon talabi hisoblanadi.

Bo'lajak turizm mutaxassislarining kasbiy tayyorligida sohaviy terminologiyani mukammal o'zlashtirish alohida o'rin egallaydi. Chunki sohaviy atamalarini to'g'ri tushunish, ularni professional kontekstdagi muloqotda qo'llash xalqaro amaliyotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning asosi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, til o'rgatish jarayonida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy raqamli texnologiyalar, elektron axborot tizimlari, innovatsion o'qitish platformalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, xususan Yevropa, AQSH, Yaponiya va Janubiy Koreyada raqamli texnologiyalar orqali sohaviy terminlarni o'rgatish keng qo'llaniladi. Virtual platformalar, flesh-kartalar, onlayn testlar va interaktiv o'yinlar orqali talabalar o'z bilimini mustaqil tarzda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa o'quv jarayonini qiziqarli, samarali va qulay shaklda tashkil etishga yordam beradi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy ta'lim, onlayn kurslar va elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, aynan turizm sohasi terminologiyasini o'qitishda raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha ilmiy-uslubiy tadqiqotlar yetarlicha emas. Shuning uchun bo'lajak turizm mutaxassislari tayyorlashda elektron axborot tizimlarining imkoniyatlarini chuqur o'rganish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish davlatning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi mehmonxona majmualari, zamonaviy transport yo'nalishlari, madaniy meros ob'ektlarini restavratsiya qilish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, turizm sohasida xizmat ko'rsatish sifati, xorijiy tillarni mukammal biladigan, sohaviy terminologiyani puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — bo'lajak turizm mutaxassislari tayyorlash jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalar va elektron axborot tizimlari yordamida talabalar sohaviy lug'at boyligini samarali shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliy tajribada tekshirishdan iboratdir.

Ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

1. Flesh-kart va takrorlash metodlari (Miller, 2017; Johnson, 2019). Miller (2017) ilmiy tadqiqotida digital flesh-kartlarning lug'at o'zlashtirishga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, flesh-kart yordamida amalga oshiriladigan spaced repetition (masofali takrorlash) metodi o'quvchilarning yangi so'zlarni uzoq muddat yodda saqlashiga sezilarli hissa qo'shadi. Johnson (2019) meta-tahlilida esa flesh-kart texnologiyalarining o'qituvchilar va talabalar orasida qabul qilinishi, interaktivligi va o'z-o'zini baholash imkoniyatining lug'at egallash samaradorligini yanada oshirishini qayd etadi.

2. Gamifikatsiya elementlari va motivatsiya (Smith & Lee, 2018; Brown, 2020). Smith va Lee (2018) gamifikatsiya (o'yinsifat elementlari) li pedagogik yondashuvni tahlil qilgan. Ularning tadqiqotiga ko'ra, viktorina, reyting va ball tizimlari talabalar diqqatini ushlab turishga, maqsadga

yo'naltirilgan faoliyatni rag'batlantirishga hamda bilimni yana-yana mustahkamlashga yordam beradi. Brown (2020) esa interaktiv test-mashg'ulotlar talabalarning akademik motivatsiyasini oshirishi hamda kurs yakunida lug'at bilimni aniqlashda yuqori natijalar berishini hujjatlashtiradi.

3. Blended learning va aralash metodlar (Thompson, 2020). Thompson (2020) "blended learning" modelini tahlil qilib, an'anaviy va raqamli usullarni uyg'unlashtirishning til o'qitishdagi afzalliklarini ko'rsatadi. Unga ko'ra, flesh-kartlar (Quizlet), onlayn viktorinalar (Kahoot) va klassik dars mashg'ulotlarini integratsiya qilish amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish, talabaning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirish va dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Kontekstual va yozma ko'nikmalar (Garcia, 2021). interaktiv ish varaqalari (Worksheet-Zone) orqali terminologiyani o'rgatish bo'yicha tadqiqot o'tkazgan. U matn-tahlil, gapni to'ldirish, moslashtirish kabi kontekstual mashqlar talabalarni atama ma'nosini chuqur tushunishga va yozma nutqda to'g'ri foydalanishga o'rgatishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv sohaviy lug'at boyligini nafaqat yodlash, balki talaba tomonidan mustaqil ravishda izohlash va qo'llash darajasini ham oshiradi.

5. Milliy kontekstga moslashtirish (Moydinova, 2022; Rahmonov, 2021). O'zbek olimlari Moydinova (2022) va Rahmonov (2021) elektron ta'lim vositalarini o'zbek tilidagi terminologiyani o'rgatishga tatbiq etish masalalarini ko'rib chiqqan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, xorijiy platformalar bilan bir qatorda milliy kontentni yaratish, madaniy-lingvistik xususiyatlarni hisobga olish, interaktiv jadvallar, audiovizual materiallar kiritish o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

Maqolaning ilmiy mohiyati. Ushbu maqolaning ilmiy mohiyati shundaki, u bugungi kunda turizm sohasi mutaxassislari zamonaviy talabalar asosida tayyorlash jarayonida sohaviy lug'at boyligini rivojlantirishda elektron axborot tizimlari imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qiladi va metodik asoslaydi. Maqolada xorijiy va milliy tajribalar asosida turizm sohasiga oid terminlarni raqamli texnologiyalar yordamida o'rgatishning afzalliklari, samaradorlik shartlari hamda o'quv jarayonidagi metodik yondashuvlari ilmiy asoslanadi.

Mazkur tadqiqotning obyekti — O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida turizm yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavriat bosqichi talabalarining sohaviy lug'at boyligini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Tadqiqot obyekti sifatida aynan bakalavriat talabalari tanlanishiga sabab — aynan shu bosqichda talabalar umumkasbiy fanlardan maxsus sohaga oid fanlarga o'tadi va turizm sohasiga tegishli atamalar, professional muloqot ko'nikmalari asosiy o'rin egallay boshlaydi.

Bu davrda talabalar xorijiy tillarda sohaviy matnlar bilan ishlash, atamalarni kontekstda tushunish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallaydi. Shu sababli, ularning **til boyligi va kasbiy terminologiyani o'zlashtirish holati** tadqiqotning asosiy obyekti sifatida o'rganiladi.

Shuningdek, obyektidan kelib chiqib, tadqiqotda o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni qo'llashdagi tajribasi, o'quv dasturlar tarkibi, elektron axborot tizimlari imkoniyatlari ham qisman tahlil etiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy-uslubiy usullar majmuasi qo'llanildi:

1. Nazariy tahlil usullari:

- Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xorijiy va milliy tajribalar, o'quv qo'llanmalar, maqolalar o'rganildi.

- So'nggi yillarda raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xalqaro tadqiqotlar tahlil qilindi.

- Turizm sohasiga oid atamalar bazasi, sohaviy lug'atlar tuzilishi, o'qitish metodikasi qiyosiy tahlil qilindi.

2. Qiyosiy tahlil usullari:

- O'zbekiston ta'lim tizimidagi an'anaviy lug'at o'qitish yondashuvlari xorijiy interaktiv platformalar tajribasi bilan solishtirildi.

- Turli platformalarning (Quizlet, Kahoot, WorksheetZone) metodik imkoniyatlari o'zaro taqqoslandi.

3. Modellashtirish va umumlashtirish:

- Raqamli texnologiyalar asosida sohaviy terminlarni o'rgatishning nazariy modeli ishlab chiqildi.

- Olingan tahlillar asosida umumiy ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Ushbu usullar yordamida tadqiqotning asosiy g'oyasi — **bo'lajak turizm mutaxassislarini tayyorlashda elektron axborot tizimlari imkoniyat-**

larini ilmiy-metodik jihatdan asoslash — nazariy va amaliy asosda yoritildi.

Asosiy qism. Bugungi kunda turizm sanoati dunyoning eng yirik va eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili millionlab sayyohlar mamlakatlar o'rtasida safar qiladi va turistik xizmatlardan foydalanadi. Shu sababli, turizm sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassisning professional tayyorgarligi birinchi navbatda **til kompetensiyasi**, ya'ni **sohaviy lug'at boyligi** bilan uzviy bog'liqdir.

Atamalar bilimi — professional muloqotning asosidir. Turizm asosiy muloqot vositasi ko'pincha ingliz tili, shuningdek, boshqa xorijiy tillar bo'lib, mijozlar, xorijiy hamkorlar va mehmonlar bilan samarali va professional muloqot qilishda **to'g'ri atamalarni ishlatish** katta rol o'ynaydi. Masalan:

- Gid tarjimoni ekskursiya paytida **cultural heritage, site, tour itinerary, inbound tourism, outbound tourism** kabi so'zlarni to'g'ri ishlatishi zarur.

- Mehmonxona administratorlari **reservation, check-in, check-out, occupancy rate, room allocation** atamalarini bilmasa, xizmat ko'rsatish sifati pasayadi.

- Tur-operatorlar va agentlar **package tour, incentive tour, charter flight, all-inclusive, destination management** tushunchalarini noaniq ishlatsa, mijoz bilan noto'g'ri tushunmovchilik yuz beradi.

Shunday ekan, turizm sohasida **terminlar lug'atini mukammal egallash** nafaqat kasbiy savodxonlik, balki xizmat sifati va xalqaro hamkorlik samaradorligining ham asosidir.

Sohaviy lug'at boyligi — til kompetensiyasi-ning muhim ko'rsatkichidir. Filologiya va tilshunoslik tadqiqotlari ko'rsatadiki, umumiy til boyligi 3–4 ming so'z atrofida bo'lsa ham, professional til boyligi sohada 500–1000 ga yaqin asosiy atama va iboralarni puxta o'zlashtirishni talab etadi. Turizm mutaxassisi faqat umumiy ingliz tilini bilish bilan cheklanib qolmasdan, o'z sohasiga oid aniq terminlarni kontekstda ishlata olishi kerak. Bu:

- turistlar bilan **tushunarli va aniq axborot almashinuvi**,

- turistik marshrutlar va xizmatlarni **to'liq va mukammal tavsiflash**,

- professional hujjatlar, kataloglar, sayohat dasturlarini **to'g'ri tayyorlash** imkonini beradi.

1-jadval. An'anaviy yondashuvlarning afzalliklari va cheklovlari

Afzalliklari	Cheklovlari
lug'at boyligini bosqichma-bosqich oshiradi	o'quvchi passiv rolga ega bo'ladi, faqat tayyor ma'lumotni oladi
til tizimini nazariy asosda mustahkamlaydi	o'zlashtirilgan so'zlarni amalda qo'llash imkoniyati cheklangan
o'qituvchi tomonidan doimiy nazorat imkonini beradi	talabada mustaqil ishlash, so'zlarni mustahkamlash odati shakllanmaydi

Turizm sohasi bo'yicha malakali mutaxassis tayyorlashda talabaning kasbiy terminologiyani to'liq o'zlashtirishi zarur. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi o'quv jarayonida bu borada bir qancha muammolar mavjud. **Birinchidan**, talabalarining sohaviy inglizcha terminlarni yodlash va amaliy vaziyatda to'g'ri ishlatish ko'nikmasi yetarli emas. Ko'p hollarda ular nazariy jihatdan tushunsa-da, real vaziyatda bu atamalardan foydalanishga qiynaladilar. Masalan, mehmonxona, sayyohlik agentligi yoki aeroportda xorijiy mijoz bilan muloqotda sohaviy atamalarni to'g'ri ishlatish ko'pchilik uchun muammo bo'lib qolmoqda. **Ikkinchidan**, mavjud darsliklar va o'quv qo'llanmalar ko'pincha yetarli darajada amaliy topshiriq va interaktiv metodlarni qamrab olmaydi. An'anaviy yondashuvlarda asosan og'zaki tarjima, lug'at yodlash, matn ustida ishlashga urg'u beriladi. Bu esa talabalarni qiziqtirmaydi va ularni mustaqil o'rganishga yetarlicha rag'batlantirmaydi. **Uchinchidan**, o'qituvchilarning raqamli platformalardan foydalanish tajribasi hali yetarli emas. Ko'pgina pedagoglar Quizlet, Kahoot, Socrative kabi interaktiv vositalarni imkoniyatlarini chuqur bilmaydi yoki ulardan samarali foydalanish bo'yicha tayyor metodik qo'llanma yetishmaydi. Bu esa dars jarayonida raqamli texnologiyalarni to'laqonli tatbiq etishga to'sqinlik qiladi.

Shu asosda tadqiqotning asosiy muammosi sifatida quyidagilar belgilanadi:

- Qanday metodik yondashuv va raqamli texnologiyalar sohaviy terminlarni samarali o'rgatadi?

- O'qituvchi va talabalar uchun qanday qulay, amaliy platformalarni joriy etish mumkin?

- Amaliy mashg'ulotlar va onlayn resurslar uyg'unligini qanday tashkil qilish lozim?

Mazkur muammoga ilmiy asoslangan yechim taklif etish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi tadqiqotning markaziy masalasidir. Shu sababdan avvalo ikki yondashuvni: an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilamiz.

An'anaviy yondashuvlar — afzalliklari va cheklovlari. Til o'rgatish metodikasida an'anaviy

yondashuvlar uzoq yillar davomida asosiy o'rin tutib kelgan. Xususan, so'z boyligini oshirishda quyidagi klassik usullar qo'llangan:

- Matn o'qish va tarjima qilish — talabalar matndan yangi so'zlarni aniqlaydi, lug'atga qaraydi va tarjima qiladi.

- So'z daftarini yuritish — har bir yangi atama alohida daftar yoki kartochkaga yoziladi.

- Yodlash va takrorlash — o'qituvchi nazorati ostida muntazam so'zlar yodlanadi va testlar orqali nazorat qilinadi.

- Tarjima mashqlari — gap va matnlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish orqali kontekstda ishlash o'rgatiladi.

An'anaviy yondashuvlarning afzalliklari va cheklovlari 1-jadvalda keltirilgan.

Afsuski, amaldagi ta'lim tizimida sohaviy terminologiyani o'rgatish ko'pincha an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolmoqda. An'anaviy usullar esa hozirgi yosh avlodning qiziqishlari va raqamli ko'nikmalari bilan to'la mos kelmaydi. Dars mashg'ulotlarida kitob va leksiya bilan cheklanib qolish natijasida talabalar nazariy bilimlarni oladi, ammo amaliy qo'llashga imkon topa olmaydi. Bu esa ularning kelajakda kasbiy muloqotda erkin so'zlasha olishiga to'sqinlik qiladi.

Zamonaviy yondashuvlar — interfaollik va mustaqillik. XXI asr axborot texnologiyalari davrida so'z boyligini oshirish jarayoni sezilarli darajada interfaollashdi. Zamonaviy yondashuvlarda o'quvchi faol ishtirokchi sifatida qaraladi va bilimni o'zi shakllantiradi.

Asosiy zamonaviy yondashuvlar:

1. Flesh-kart texnologiyasi (Quizlet):

Flesh-kartlar ikki tomonlama kartochka sifatida ishlaydi: bir tomonda — atama, ikkinchi tomonda — tarjima yoki izoh. Bu usul:

- Spaced Repetition System (SRS) asosida ishlaydi.

- Qisqa vaqt oralig'ida takrorlash orqali so'zlarni uzoq muddat yodda saqlashga yordam beradi.

- Talaba mobil ilova orqali istalgan vaqtda mustaqil shug'ullanishi mumkin.

2-jadval. An'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklari

Yondashuv turi	Afzalliklari	Cheklovlari
An'anaviy yondashuvlar	Nazariy bazani mustahkamlaydi, asosiy lug'atni shakllantiradi	Talaba passiv bo'lib qoladi, mustaqil ishlash yetishmaydi
Zamonaviy yondashuvlar	Interfaollik, motivatsiya, mustaqil o'rganish imkoniyati	O'qituvchi tomonidan monitoring talab qiladi, internet bog'lanishi kerak

2. Gamifikatsiya — Kahoot viktorinalari:

Gamifikatsiya elementlari (ball, reyting, test musobaqalari) talabalarning diqqatini jamlash, raqobat hissini uyg'otish va so'zlarni tezkor eslab qolishga yordam beradi. Kahoot platformasida:

- O'qituvchi testlar tuzadi.
- Talabalar real vaqtda o'yin tarzida qatnashadi.

- Test natijalari darhol aks etadi.

3. Ish varaqalari (WorksheetZone):

Kontekst asosida so'zlarni mustahkamlashga qaratilgan. Masalan:

- Matnda bo'sh joylarni to'ldirish.
- Terminlarni moslashtirish va juftlash.
- Gap tuzish va yozma topshiriqlar.

An'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklari 2-jadvalda keltirilgan.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda til va sohaviy atamalarini o'rgatishda raqamli platformalar keng joriy etilgan. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada talabalarga Quizlet, Kahoot, Socrative kabi interaktiv ilovalar yordamida onlayn flesh-kartalar, testlar, viktorinalar taklif etiladi. Bu platformalar nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki talabalarni mustaqil ishlashga, mustahkamlashga va o'zini nazorat qilishga undaydi.

Yaponiyada turist gidlarini tayyorlash kurslarida virtual ekskursiyalar, AR va VR texnologiyalar orqali interaktiv muhit yaratilib, talabalar real sharoitlarga tayyorlanadi. Yevropaning ko'plab oliy o'quv yurtlarida "blended learning" – aralash o'qitish yondashuvi qo'llanilib, an'anaviy darslarni raqamli platformalar bilan uyg'unlashtirish tajribasi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonda ham bu yo'nalishda dastlabki qadamlar tashlanmoqda. Masalan, ayrim universitetlarda Moodle, Google Classroom, MS Teams kabi platformalarda elektron ta'lim kurslari yaratilmoqda. Biroq aynan sohaviy terminologiyani o'rgatishga ixtisoslashgan milliy platformalar, fleshkart bazalari va interaktiv topshiriqlar tizimi yetarli emas. Shu sababli, mavjud xorijiy tajribani o'rganish va milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zarurati kun tartibida turibdi.

Bugungi raqamli asrda sohaviy lug'atni o'rgatishda "blended learning" modeli:

– **flesh-kart (Quizlet)** texnologiyalari — yangi so'zlarni muntazam takrorlash va avtomatlashtirish uchun;

– **viktorina va o'yinlar (Kahoot)** — motivatsiyani oshirib, o'zlashtirilgan terminlarni tezkor eslab qolishga xizmat qiladi;

– **ish varaqalari (WorksheetZone)** — yozma topshiriqlar orqali so'zlarni gap tarkibida, jumla va matnda ishlatish ko'nikmasini mustahkamlaydi.

Bu yondashuvlar **kognitiv takrorlash, faol ishtirok, mustaqil o'rganish** imkonini yaratadi. Shu sababli raqamli texnologiyalar yordamida o'rgatish — bugungi zamonaviy ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi.

Demak, turizm sohasida sohaviy lug'at boyligini rivojlantirish:

– xalqaro muloqotda raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashning asosi;

– mijozga sifatli xizmat ko'rsatish kafolati;

– soha rivojiga mos professional til madaniyatini shakllantirish omili sifatida qaraladi.

Shu sababli zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalar yordamida sohaviy lug'atni o'rgatish metodikasi doimiy ravishda yangilanib, talabalar ehtiyojiga moslashtirilishi zarur.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan nazariy tahlil va adabiyotlar sharhidan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda turizm sohasida kasbiy til kompetensiyasini shakllantirish va sohaviy lug'at boyligini oshirish — raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi. An'anaviy lug'at o'rgatish usullarining yutuqlari, zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashganda, o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli oshiradi.

Maqolada ko'rib chiqilgan **Quizlet, Kahoot, WorksheetZone kabi elektron axborot tizimlari** bo'lajak turizm mutaxassislarning mustaqil ta'lim olishini, bilimni mustahkamlashini va so'z boyligini amaliy faoliyatga qo'llashini osonlashtiradi. Xorijiy tajribalarni milliy ta'lim amaliyotiga moslashtirish, raqamli platformalarning o'zbek tilidagi konten-

tini boyitish va metodik qo'llanmalar bilan qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu asosda quyidagi **xulosalarni** keltirish mumkin:

1. Turizm sohasiga oid terminlarni o'rgatishda **blended learning**, ya'ni aralash o'qitish modeli eng samarali yondashuv hisoblanadi.

2. An'anaviy va interaktiv metodlarning uyg'unligi — nazariy bilimning chuqurligi va amaliy qo'llashning samaradorligini ta'minlaydi.

3. Talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun flesh-kart bazalari, onlayn testlar, viktorinalar muntazam qo'llanishi lozim.

4. Elektron axborot tizimlari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish — bo'lajak turizm mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini zamon talablari darajasida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maqolada bayon etilgan nazariy asoslar va takliflar kelajakda turizm sohasida sifatli mutaxassislarni tayyorlashda yangi yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak turizm mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy raqamli texnologiyalar asosidagi o'qitish metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq nafaqat talabalar lug'at boyligini kengaytiradi, balki ularni mustaqil, tanqidiy fikrlovchi va global raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Graham, C.R. (2006). Blended Learning Systems: Definition, Current Trends, and Future Directions. In C. J. Bonk & C. R. Graham (Eds.), Handbook of Blended Learning. San Francisco: Pfeiffer Publishing.
2. Atkinson, R.C., & Shiffrin, R.M. (1968). Human Memory: A Proposed System and its Control Processes. In Spence, K. W. & Spence, J. T. (Eds.), The Psychology of Learning and Motivation. Academic Press.
3. Thompson, G. (2020). Blended Learning in Higher Education: Frameworks and Case Studies. Routledge.
4. Smith, P., & Lee, J. (2018). Gamification and Student Motivation in Higher Education. Journal of Educational Technology & Society, 21(3), 155–168.
5. Miller, T. (2017). Using Quizlet to Enhance Vocabulary Learning. English Teaching Forum, 55(1), 30–35.
6. Garcia, M. (2021). Worksheet-Based Learning for Vocabulary Acquisition. Language Learning Journal, 49(2), 145–158.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-6600413>
8. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. (2023). Turizm ta'lim yo'nalishida sohaviy ingliz tili o'qitish metodikasi bo'yicha tavsiyalar. Toshkent: O'quv-uslubiy qo'llanma.
9. World Tourism Organization (UNWTO). (2022). International Tourism Highlights. Madrid: UNWTO.
10. Moydinova E.K. (2022). Raqamli texnologiyalar yordamida til o'qitishning nazariy asoslari. Toshkent: O'zMU Ilmiy jurnali.
11. Brown, H.D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
12. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
13. Лексикология: Учебное пособие / Под ред. Н. М. Шанского. — М.: Высшая школа, 2005.
14. Davlatov, B., & Nuritdinov, O. (2020). Turizm marketingi asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot va Turizm nashriyoti.
15. European Commission. (2020). Digital Education Action Plan (2021–2027): Resetting education and training for the digital age. Brussels: European Union.